

Davlat kadastrlari kafedrasini mudiri, Yer tuzish va kadastr sohasining yetuk olimi Qosimjon Raxmonov 70 yoshga to'ldi

Qosimjon Raxmonovning 70 yoshga to'lishi hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutidagi pedagogik va ilmiy faoliyatiga 45 yil to'lishi munosabati bilan institut rektori nomidan Kasaba uyushmasi raisi F.Irisov hamda Yer resurslarini boshqarish fakulteti jamoasi tabrikladi.



Ustoz Qosimjon Rahmonov 1976 yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Yer tuzish" fakultetini tamomlagan hamda o'zining ish faoliyatini shu institutdan boshlagan. Qosimjon Rahmonov mamlakatimizning yer tuzish va kadastr sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash negizida respublikamiz iqtisodiyotini rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yetuk olimdir. U tarbiyalagan shogirdlar bugungi kunda O'zbekistonning turli viloyat va tumanlarida, shuningdek qo'shni respublikalarda muvaffaqiyatli mehnat qilib, o'zlarining ish faoliyatlarida bilimlarni to'la safarbar qilmoqdalar. Qosimjon Rahmonov bir nechta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 140 dan ortiq ilmiy maqola, 4 ta monografiya, 1 ta darslik, 8 ta o'quv qo'llanma va 3 ta patent muallifi hisoblanadi.



Q.Raxmonov o'z faoliyati davrida AQSh, Finlandiya, Shvesiya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Rossiya davlatlarida xizmat safarida bo'lib, malaka oshirgan. Ustoz Qosimjon Raxmonovga bitmas-tugalmas baxt-sodat, sog'liq- salomatlik, mamlakatimiz hamda institutimiz ravnaqi yo'lidagi sharaflii ishlarida kattadan-katta muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Ishonamizki, ustoz o'z bilim va tajribalarini jonajon yurtimiz qudratini yanada oshirishga kamarbasta bo'ladigan shogirdlar tayyorlashda bundan keyin ham sarflayveradi.

Yer resurslarini boshqari fakulteti dekani Sh.Narbaev axboroti.